



UDK:316.3/4

Maxmut MAMATOV,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori vazifasini bajaruvchisi, f.f.d

E-mail: mamatovmahmud51@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-8925-8486>

TIQXMI professori, f.f.d Q.Nazarov taqrizi asosida

YANGI O‘ZBEKISTON ZAMONAVIY YOSHLARINING MA’NAVIV QIYOFASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI

Аннотация

Maqolada Yangi O‘zbekiston zamonaviy yoshlarining ma’naviy qiyofasi va uni takomillashtirish tamoyillari asosida tarbiyalashda, ijtimoiy, iqtisodiy omillar bilan birga ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda ro‘y beradigan voqea-hodisalar, ular bilan bog‘liq turli jarayonlar ta’lim amaliyotida muhimligi ko‘rsatilgan. Bu maqolada inson mohiyati, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etilishi haqida ma’lumotlar, ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha ekanligi, kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, tasavvurlarini o‘z ichiga olishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yangi, qonun, harakat, tamoyil, rivojlanish, axloq, qadriyat, ma’naviyat, tarbiya, zamonaviy, ta’lim, qiyofa, bosqich.

ДУХОВНАЯ ФОРМА СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И ПРИНЦИПЫ ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация

В статье обосновывается значимость воспитания духовного облика современной молодежи Нового Узбекистана на основе принципов его совершенствования. Подчеркивается, что наряду с социально-экономическими факторами существенную роль в образовательной практике играют процессы и события, происходящие в духовно-просветительской сфере. Рассматриваются вопросы сущности человека и воплощения его ценности как уникального социального и духовного существа. Раскрывается содержание понятия духовности как категории, отражающей внутренний, психический и интеллектуальный мир личности, включающей философские, правовые, научные, художественные и нравственные представления.

Ключевые слова: обновление, закон, движение, принцип, развитие, нравственность, ценности, духовность, воспитание, современность, образование, облик, этап.

THE SPIRITUAL FORM OF MODERN YOUTH OF NEW UZBEKISTAN AND THE PRINCIPLES OF ITS IMPROVEMENT

Annotation

This article substantiates the importance of fostering the spiritual image of modern youth in New Uzbekistan based on the principles of its continuous improvement. It emphasizes that, alongside socio-economic factors, processes and events occurring within the spiritual and educational sphere play a significant role in educational practice. The study examines the essence of the human being and the realization of their value as a unique social and spiritual entity. It further elaborates on the concept of spirituality as a category reflecting the inner, psychological, and intellectual world of an individual, encompassing philosophical, legal, scientific, artistic, and moral dimensions.

Keywords: renewal, law, movement, principle, development, morality, values, spirituality, upbringing, modernity, education, image, stage.

Kirish. Bugun butun xalqimiz yagona ezgu maqsad – Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida birlashmoqda. Bu ulkan dengizning qudratli to‘lqini bo‘lib oldingi safda turgan serg‘ayrat yoshlarimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ishongan kuchimizdir.

“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida o‘tkazilgan festivallarda olti millionga yaqin shijoatli o‘g‘il-qizlar ishtirok etdi. Respublika yoshlarini birlashtirgan, haqiqiy vatanparvarlik va barkamollik namoyishiga aylangan bunday festivallar har yili, har bir hududda o‘tkazilishi hamda ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha aniq dasturlar ishlab chiqilishi bejiz emas albatda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur islohatlar amalga oshirilayotgan bir paytda, yosh avlodning ma’naviy qiyofasini shakllantirish va uni takomillashtirish masalasi strategik ahamiyatga ega. Yoshlar jamiyatning eng faol qatlami bo‘lib,

ularning ma’naviy dunyosi, qadriyatlari va dunyoqarashi mamlakatning kelajak taraqqiyotini belgilaydi. Zamonaviy yoshlarning ma’naviy qiyofasini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, uni takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq misollarni insoniyat tarixidan ko‘plab keltirish mumkin”. [1] Shuning uchun yoshlardagi shijoat, jo‘shqinlik, aql-zakovat va ezgu niyatlarini uyg‘unlashtirib, oldimizga qo‘yilgan aniq maqsadlarni ruyobga chiqarishga yo‘naltirishimiz va komil inson qilib tarbiyalashimiz zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’naviyat tushunchasi keng va ko‘p qirrali bo‘lib, u insonning ichki ruhiy olami, axloqiy qarashlari, qadriyatlari, ma’rifiy saviyasi

va ijtimoiy faolligini qamrab oladi. Bu borada sobiq Prezidentimiz Islom Karimov o'z asarlarida "Ma'naviyat-insonni inson qiladigan, uning ichki dunyosi va irodasini mustahkamlaydigan kuch"[2] deb ta'riflaydi. Shuningdek Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"[3] g'oyasida ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ma'naviy tarbiya va yoshlar ma'naviyati masalasi nafaqat milliy, balki jahon ilmiy merosida ham keng yoritilgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlaridan Abu Nosir Farobiy "Fozil odamlar shahri"[4] asarida jamiyat taraqqiyoti insonning ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'liq ekanligini asoslab bergan. Abu Ali ibn Sino esa inson kamoloti jarayonida axloqiy tarbiya va ilmning o'rnini chuqur tahlil qilgan. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"[5] asarida esa adolat, insof va ma'naviy poklik jamiyat barqarorligining asosi sifatida ekanligini ko'rsatib bergan. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi ham yoshlar tarbiyasida muhim manba hisoblanib, uning asarlarida insonparvarlik, adolat va kamillik g'oyalari ilgari surilgan. Shu bilan birga, zamonaviy olimlarimizdan Q.N.Nazarov, B.To'ychiyev, N.Komilov, M.Quronov kabilarning asarlarida ma'naviyat, milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi masalalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Xorijiy ilmiy manbalarda ham yoshlar ma'naviyati va ijtimoiylashuvi muammolari keng o'rganilgan. E.Dyurkgeym jamiyatda axloqiy meyorlar va qadriyatlar tizimining shakllanishini ijtimoiy barqarorlik omili sifatida ko'rsatgan bo'lsa, M.Veber esa shaxsning qadriyatga asoslangan faoliyatini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida talqin etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy yoshlarning ma'naviy qiyofasini o'rganish va uni takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqish kompleks ilmiy yondashuvni talab etadi. Mazkur maqolada metodologik asos sifatida falsafiy, pedagogik, sotsiologik va madaniy yondashuvlar uyg'unligi ta'minlangan. Manbalarga tayanadigan bo'lsak, "Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari" kategoriyasi esa, an'anaga ko'ra, turli tuman ma'nolarda – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axborot, ta'lim va boshqalar bilan aloqador serqirra tushuncha sifatida qo'llaniladi. Ilmiy nuqtai nazardan olib qaraganda bu tushuncha–ko'plab o'zaro harakatlanuvchi subektlar tomonidan shakllantiriladigan tizim bo'lib hisoblanadi. Ma'naviy taraqqiyot tamoyillarining funksional o'ziga xosliklari bilan belgilanadigan munosabatlar tizimi sifatida bu hodisa siyosiy jarayonlarda o'ziga xos aks etadi, albatta"[6].

Maqolaning falsafiy-metodologik asosini inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi g'oyalar tashkil etadi.

Metodologik jihatdan Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" g'oyalariga tayanadi. Unda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy muhitni

sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Komilov Nuriddin Karimovichning "Ma'naviyat va jamiyat"[7] asarida ma'naviyatning inson kamoloti va ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini konseptual jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, Polvonov Abdunabi Abdurahimovichning "Ma'naviyat falsafasi"[8] asarida ma'naviyat falsafasi inson ichki dunyosi va uning ijtimoiy faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib berilgan.

Quronov Muhammadjon Rahmonovichning "Barkamol avlod tarbiyasi"[9] asarida barkamol avlod tarbiyasining mazmuni, usullari va shakllari ilmiy jihatdan yoritilgan. Ularda ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyani integratsiya qilishning samarali mexanizmlari ochib berilgan.

To'ychiyev Baxtiyor Abdurahmonovich "Ma'naviyat asoslari"[10] asarida milliy qadriyatlar asosida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlab berilgan.

2021-yil 26-mardagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan yangilash to'g'risida". [11] qarorlari maqolamizning eng muhim nazariy asosi va tayanch metodologik hujjatlaridir.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunga kelib dunyodagi global muammolarning keskinlashishi va ularni bartaraf etishning ma'naviy-mafkuraviy omillari bilan bog'liq masalalarini tahlil qilishga e'tibor kuchaydi. Yangi O'zbekiston zamonaviy yoshlarining ma'naviy qiyofasi va uni tarbiyasini shakllantirishda tamoyillarning mazmun-mohiyatini davra suhbatlari, kechalar, uchrashuvlar, vektorinalar asosida tushuntirish asosiy masalalardan biridir. Bu tamoyillarga qo'yidagilarni keltirishimiz mumkin:

"Inson – jamiyat – davlat", "Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari", "Inson qadri uchun", "Kichiklarning kattalarni hurmat qilish", "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi", "Uzluksizlik va izchillik", "Innovatsion yondashuv", "Ijtimoiy faollikni rag'batlantirish", "Ma'naviy immunitetni shakllantirish", "Davlat va jamiyat hamkorligi" tamoyillarini ko'rsatishimiz mumkin. Bu tamoyillarning mazmun-mohiyati yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega:

Xulosa va takliflar. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirish va takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Unda milliy qadriyatlar, zamonaviy innovatsiyalar va ijtimoiy faollik uyg'unligi asosiy o'rin tutadi. Shu asosda tarbiyalangan yoshlar mamlakat taraqqiyotining ishonchli tayanchi bo'lib xizmat qiladi

Ijtimoiy muhit, oila, ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va raqamli makon kabi omillar tushuniladi. Ushbu omillar yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shundagina barkamol, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli komil insonlarni tarbiyalash mumkin.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan ma'lumki, Yangi O'zbekiston zamonaviy yoshlarining ma'naviy qiyofasi va uni takomillashtirish tamoyillari asosida – barkamol avlodni tarbiyalash uchun asos bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari.T.: O'zbekiston, 2020
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – : Toshkent: O'zbekiston, 2008. - 248 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. - 461 bet
4. Forobiy Abu Nacr. Fozil odamlar shahri.-T.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993 yil.224-bet.
5. Yusuf Xos Hojib Qutadg'u bilig. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi (2018)
6. Mamatov M. Yangilanayotgan o'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili. Dissertatsiya Toshkent – 2023 yil 226 bet.
7. Komilov N.K. Ma'naviyat va jamiyat. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2013.
8. Polvonov A.A. Ma'naviyat falsafasi. – Toshkent, 2014.
9. Quronov M.R. "Barkamol avlod tarbiyasi - Toshkent: "Ma'naviyat", 2012.
10. To'ychiyev B.A. Ma'naviyat asoslari – Toshkent. "O'zbekiston"2015.
11. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz , "O'zbekiston"lqism NMIU,2019y. 418 bet.